

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 34 yilligi munosabati bilan akademik litseyda bayram tadbiri tashkil etildi

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 34 yilligi munosabati bilan Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyining erkak o'qituvchilari erta tongdan iliq kayfiyatda kutib olinib tabriklandi. Tadbir davomida ta'lim jarayonining fidoyi ustozlariga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatilib, ularning yoshlarga bilim va tarbiya berishdagi mehnatlari yuksak qadrlanishi ta'kidlandi.

O'qituvchilar - yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otuvchi, yurt kelajagini mustahkamlovchi chinakam yo'l boshchilardir. Barcha ustozlarga mustahkam sog'lik, kuch-g'ayrat va ulkan zafarlar tilaymiz! Sizlarning mehnatingiz doimo qadrlidir!"







